



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

### Xalq ta'limi tizimida uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" 2022-yil 11-maydag'i PF-134-son Farmoni hamda "Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarorining 11-bandi ijrosini ta'minlash, shuningdek, maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturi va zamonaviy darsliklarni amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzlusiz metodik xizmat ko'rsatib borishni tizimli tashkil etish maqsadida **buyuraman**:

1. Pedagoglarning uzlusiz kasbiy mahoratini oshirish va metodik xizmat ko'rsatishning quyidagi me'yoriy hujjatlari:

umumi o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi 1-ilovaga muvofiq;

umumi o'rta ta'lim maktabining Metodbirlashmalar to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi to'g'risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlarining malaka tavsiflari 4-ilovaga muvofiq;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining O'quv-metodik kengashlar to'g'risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ta'lim muassasalarida Pedagogik kengash faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2016-yil 30-maydag'i 6-mh-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumi o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashi to'g'risidagi namunaviy nizom"ga muvofiq tashkil etilishi inobatga olinsin.

3. Ta'lim sifatini muvofiqlashtirish departamenti (L.Xujaqulov, O.Dauletbaev), Respublika ta'lim markazi (Sh.Sattorov), Xodimlarni o'qitish, pedagoglarni tayyorlash va salohiyatini oshirish sho'basi (A.Xamidov) Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bir oy muddatda mazkur buyruqning

mazmun-mohiyatini xalq ta'limi tizimi xodimlariga keng tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga joriy yilning 7-dekabrga qadar mazkur buyruqni tegishli ta'lim muassasalariga yetkazish, uning mazmun-mohiyatini pedagogik jamoalar orasida keng targ'ib qilish uchun reja-grafigini tasdiqlagan holda tushuntirish ishlarini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.

5. Ijtimoiy tarmoqlar orqali o'tkazilgan so'rovnomalar hamda pedagoglarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda umumiyligi o'rta ta'lim maktabi fan o'qituvchilarining "Metodik kunlari" va "Fan oyliklari"ni o'tkazish tartibi bekor qilinsin hamda umumiyligi o'rta ta'lim maktabi direktorlari SanQvaN me'yorlariga rioya qilgan holda dars jadvaliga tegishli o'zgartirishlar kirlitsin.

6. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 13-avgustdagagi "Xalq ta'limi tizimida uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 183-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (L.Rustamova) metodik xizmat ko'rsatish sohasida olib borilayotgan islohotlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borishni ta'minlasin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinnbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Saidov

Toshkent sh.,  
2022-yil 5 dekabr.  
392-son

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'lifi vazirining  
2022-yil "5" -dekabrdagi  
372-sonli buyrug'iiga  
1-ILOVA

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga uzlusiz  
metodik xizmat ko'rsatish  
TARTIBI**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur tartib umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning salohiyatini oshirish, o'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan metodik xizmat ko'rsatish tizimini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Respublika ta'lim markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalari, Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari, tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limlari, xalq ta'lifi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablariga tatbiq etiladi.

**2-bob. Uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish tartibi**

3. Xalq ta'lifi tizimida uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish tizimi quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan metodbirlashmalari;

umumiy o'rta ta'lim maktablarining pedagogik kengashi;

Tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limlari;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limlari huzuridagi O'quv metodik kengashlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari;

Respublika ta'lim markazi huzuridagi ilmiy metodik kengashlar.

4. Ushbu uzlusiz metodik xizmat ko'rsatish tizimidagi kengash va birlashmalarning faoliyati tegishli nizom asosida tashkil qilinadi.

5. Quyidagilar umumiy o'rta ta'lim maktablarining fan o'qituvchilariga metodik xizmat ko'rsatadi:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan metodbirlashma rahbarlari;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik kengash a'zolari;

tuman, shahar xalq ta'lifi bo'limidagi Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirish sho'basi metodistlari;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi fan metodistlari;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari;

Respublika ta'lim markazi fan metodistlari.

6. Umumiy o'rta ta'lim mакtabida **fan metodbirlashma rahbarlari** o'qituvchilarga o'quv yili davomida quyidagi metodik xizmatlarni ko'rsatadi:

o'qituvchilarni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy ommabop adabiyotlar bilan tanishtirib boradi;

fanni o'qitishga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullarini ko'rsatib beradi;

variativ o'quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish choralarini ko'radi;

dars jarayonida ko'rgazmali vositalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar beradi;

har bir chorak yakuniga ko'ra o'quvchilardagi bo'shliqlarni to'ldirish, murakkab mavzularni osonroq tushuntirish bo'yicha metodik tadbirlarni tashkil etadi;

yosh pedagoglarga tajribali ustozlarni biriktirib, kasbiy rivojlantirishga sharoit yaratadi;

metodbirlashma a'zolari orasida sog'lom raqobat va ijodiy muhitni shakllantiradi, boshqa metodbirlashmalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

fan o'qituvchilarining dars taqsimotiadolat va shaffoflik asosida tegishli tarifikatsiya bo'yicha metodbirlashmada muhokama qilinib, mакtab pedagogik kengashiga taklif kiritadi;

o'qituvchilarga sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishga ko'maklashadi;

fan o'qituvchilarining metodik yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlab, tuman (shahar), hududiy xalq ta'limi boshqarmasi va Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi metodistlaridan metodik yordam oladi;

mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo'yicha o'quvchilarning tegishli ko'nikmalariga ega bo'lislari uchun o'quvlar tashkil qilib boradi;

ilg'or metodikalarga ega o'quvchilarni xolis aniqlab, ularning tajribasini ommalashtirish, rag'batlantirish bo'yicha mакtab pedagogik kengashiga taklif kiritadi.

7. Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida o'quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarga o'z vaqtida metodik yordamni tashkil qilish maqsadida yilning avgust oyida **va har chorakda kamida bir marta** fan metodbirlashmali yig'ilishi o'tkaziladi.

Yig'ilishlarda o'quvchilarga fan metodbirlashma rahbarlari tomonidan ko'rsatilgan metodik xizmatlar natijasida o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligi va sifati, o'quvchilarning ilg'or tajribasini mакtab miqyosida

ommalashtirish, ularni moddiy-ma'naviy rag'batlantirish, xalqaro tan olingen ta'lism dasturlari hamda xalqaro tan olingen va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar, fan o'qituvchilarining dars taqsimotlari, mediasavodxonlik va onlayn axborot bo'yicha masalalar muhokama qilinadi va tegishli tavsiyalar beriladi.

Shuningdek, mакtabning fan o'qituvchilari malaka oshirish kurslarida o'rgangan yangiliklarini o'quv jarayonida qo'llashi va natijada o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligining o'sganligi, ta'lism sifatining oshishiga erishganliklari metodbirlashma yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lism maktabida fan metodbirlashma rahbarlari tomonidan o'qituvchilarga ko'rsatilgan metodik xizmat sifati, uning natijasi mакtabning pedagogik kengashida muhokama qilinadi hamda tegishli tavsiyalar beriladi.

8. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limidagi Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va zamonaviy metodikalarni targ'ib qilishni rivojlantirish sho'basi metodistlari tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

fan o'qituvchilarining metodik yordamga bo'lgan ehtiyojini aniqlab, hududiy xalq ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari va Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo'limi metodistlaridan tegishli metodik yordam olib, umumita'lism mакtabi o'qituvchilariga yetkazadi;

hududiy xalq ta'limi boshqarmalaridagi O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari va Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo'limi metodistlari tomonidan o'tkaziladigan har xil seminar va treninglarni tashkil etish choralarini ko'radi;

oliy ta'lism va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda o'qituvchilarning dars o'qitish metodikasiga oid seminarlar, ko'rgazmalar, uchrashuvlar, mobil metodik yordamlar ko'rsatish bo'yicha tashkiliy metodik ishlarda hamkorlik qiladi;

uzoq va olis hududdagi fan o'qituvchilari bilan alohida reja asosida ishslash, ularning metodik ehtiyojlarini aniqlash va qoplash bo'yicha hududiy metodistlar bilan hamkorlik qiladi;

umumiy o'rta ta'lism maktablarining tayanch o'quv reja va o'quv dasturlari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib boradi;

"**Kollaboratsiya**" (*jamoa bo'lib ishslash qobiliyatini shakllantirish*), "**Kommunikativlik**" (*o'qituvchilar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish*), "**Kreativ fikrlash**" (*o'z maqsadlarga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish*), "**Kritik fikrlash**" (*o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish*) bo'yicha tegishli metodistlar bilan hamkorlikda tashkiliy ishlarni olib boradi;

O‘qituvchilarning taklif va tavsiyalaridan kelib chiqqan holda darslarini “Onlayn tahlil” qilish bo‘yicha hududiy metodistlar bilan hamkorlikda tashkiliy ishlarni muvofiqlashtirib boradi;

o‘qituvchilarni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy ommabop adabiyotlar bilan tanishtirib borish choralarini ko‘radi;

fanni o‘qitishga doir me’oriy va metodik hujjatlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etilishini tashkil etadi.

9. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida **har chorakda bir marta** hududiy xalq ta’limi boshqarmalari va Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga hisobot berib boradi.

10. **Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining** fan metodistlari o‘qituvchilarga quyidagi metodik xizmatlarni ko‘rsatadi:

o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga (*PISA -15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, PIRLS -boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushuntirish darajasini baholash, TIMSS – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash*) tayyorlash uchun o‘qituvchilarni qo‘srimcha materiallar bilan ta’minlaydi;

o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida “onlayn metodik yordamlar” tashkil qiladi;

yangi metodik adabiyotlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘qituvchilarga yetkazish choralarini ko‘radi;

o‘qituvchilarni o‘quv tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha metodik tavsiya va qo’llanmalar bilan ta’minlaydi;

variativ o‘quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etishga metodik yordam ko‘rsatadi;

o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalarini o‘rganadi va har xil seminarlarda fan o‘qituvchilarining ommalashtirilgan ishlarini yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchilarga yetkazib boradi;

“**Metodik-tur**” tartibiga muvofiq, reja asosida ta’lim sifati yuqori bo‘limgan maktablarga manzilli metodik yordam berib borish tizimi yaratiladi;

ta’lim berishning innovatsion usullarini joriy etishga yo‘naltirilgan o‘quv va o‘quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo‘yicha fundamental, amaliy va ilmiy tadqiqotlar loyihamonlari tajriba-sinovdan o‘tkazib beradi;

davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, dasturlarni, o‘quv-metodik materiallarni tizimli tahlil qiladi, Metodik xizmat bo‘limlari huzurida O‘quv-metodik kengashlari faoliyatini olib boradi;

umumta’lim maktab o‘qituvchilarining darslarini onlayn va offlayn kuzatib boradi hamda tahlil qilish orqali metodik yordam beradi;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bilan kelishilgan holda malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar uchun yo'nalishi bo'yicha "Metodist soati"ni o'tishi mumkin;

o'quvchilarning bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotda qo'llashni o'rgatadi;

ta'lim sifati yuqori bo'lмаган umumiyoq o'rtalim mакtablariga borib manzilli metodik yordam ko'rsatadi;

fanlarni integratsiya qilgan holda o'qitish usullarini o'rgatadi;

mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo'yicha o'qituvchilarning tegishli ko'nikmalariga ega bo'lishlari uchun o'quvlar tashkil qilib boradi;

o'qituvchilar uchun tegishli fanidan tashqi monitoring natijalari asosida o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan tavsiya ishlab chiqadi, shuningdek, ishlab chiqilgan tavsiyalarning yetkazilishini ta'minlaydi, hududlarga chiqqan holda seminarlar tashkil etadi;

har bir fan metodisti yo'nalishi bo'yicha fan o'qituvchilarining xalqaro va milliy sertifikat olishlari uchun tegishli metodik yordamlar ko'rsatib boradi;

o'qitish va o'rganishni sifatli tashkil etishga doir zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or metodikalarni o'zida jamlagan tavsiya va qo'llanmalar ishlab chiqadi va o'qituvchilarga yetkazadi.

o'z fani bo'yicha toifasiz va ikkinchi toifaga ega bo'lган o'qituvchilarni toifa olishga yo'naltirish (onlayn) uchun o'quvlar tashkil qiladi.

11. Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo'limi huzuridagi O'quv metodik kengashi **har chorakda bir marta** o'tkaziladi.

Mazkur O'quv metodik kengashda Metodik xizmat bo'limining fan metodistlari tomonidan tashkil etilgan metodik xizmat sifati, uning natijasida erishilgan yutuqlar va kuzatilgan kamchiliklar atroflicha muhokama qilinadi hamda tegishli tavsiyalar beriladi.

Metodik xizmat ko'rsatish bo'yicha olib borilayotgan ishlar to'g'risida **har chorakda bir marta** hududiy xalq ta'limi boshqarmalari va Respublika ta'lim markaziga hisobot berib boradi.

12. **Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining** O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi metodistlari quyidagi metodik xizmatlarni tashkil qilib boradi:

Sho'ba mudiri tomonidan tayanch o'quv reja, o'quv dasturlari, metodik ishlarni muvofiqlashtirish;

**Quyidagi yo'nalishlar bo'yicha har xil seminar va treninglar o'tkazish:**

"**Kollaboratsiya**" (*jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish*);

"**Kommunikativlik**" (*o'qituvchilar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish*);

**“Kreativ fikrlash”** (*o‘z maqsadlarga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rgatish*);

**“Kritik fikrlash”** (*o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish*).

mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qituvchilarining tegishli ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari uchun o‘quvlar tashkil qilib boradi;

o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlari bilan hamkorlikda “onlayn metodik yordamlar” tashkil etadi;

umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv rejalar, dasturlar, darsliklar va boshqa me’yoriy hujjatlarning bajarilishini nazorat qiladi;

variativ o‘quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish choralarini ko‘radi;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining tegishli fan metodistlari bilan hamkorlikda fan o‘qituvchilarining metodik yordamga bo‘lgan kasbiy ehtiyoji va murojaatidan kelib chiqqan holda metodik yordam berib boradi;

fan o‘qituvchilariga ijtimoiy tarmoqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish usullarini o‘rgatish bo‘yicha seminarlar tashkil qiladi;

Metodik xizmat ko‘rsatish sohasida olib borilayotgan ishlar bo‘yicha **har chorakda bir marta** Respublika ta’lim markazi va Xalq ta’limi vazirligiga hisobot berib boradi.

**13. Respublika ta’lim markazining metodistlari** fan o‘qituvchilariga quyidagi metodik xizmatlarni ko‘rsatadi:

fan o‘quv dasturlarini ishlab chiqadi va ulardagi yangi mavzularni o‘qitish usullari yuzasidan tavsiya beradi;

fan yo‘nalishi bo‘yicha namunaviy taqvim-mavzu reja ishlab chiqadi;

fan yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan seminarlar tashkil qiladi;

variativ o‘quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

o‘quvchilarining tegishli fan bo‘yicha bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

o‘quvchilarini xalqaro baholash dasturlariga (*PISA -15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, PIRLS -boshlari ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushuntirish darajasini baholash, TIMSS – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash*) tayyorlash uchun o‘qituvchilarni qo‘srimcha materiallar bilan ta’minlaydi;

o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida “**onlayn metodik yordam**” tashkil etadi;

Xalq ta’limi vazirligi buyurtmasiga asosan tuzuvchilarni tanlash hamda darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarining yagona maketlarini yaratadi;

yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarini ekspertizadan o‘tkazadi, ularni ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha xulosa beradi;

o‘quv rejasi, dasturlari, yaratilgan darsliklar va o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarini tajriba-sinovdan o‘tkazish ishlariga rahbarlik qiladi;

mediasavodxonlik va onlayn axborot xavfsizligi bo‘yicha o‘qituvchilarning tegishli ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari uchun o‘quvlar tashkil qilib boradi;

fanlarni o‘qitish metodikasi va o‘quvchilar bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini ishlab chiqadi, shuningdek, ta’lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o‘qitishning fanlararo yondashuvini joriy qiladi va bu boradagi ijobiy tajribani umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ommalashtiradi;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan fanlarni, ayniqsa, birinchi bosqichda matematika, informatika, kimyo, biologiya va o‘zbek tili (ona tili va davlat tili sifatida) fanlari uchun o‘quv-metodik ta’minotni yaxshilash hamda darsliklarning sifatli tayyorlanishini ta’minlaydi;

o‘quv-tarbiya jarayoniga “**STEAM**” fanlarini (*Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san’at, Mathematics — matematika*) o‘qitish bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etadi;

fan o‘qituvchilariga xalqaro va milliy sertifikat olishlari uchun tegishli metodik yordamlarni ko‘rsatib boradi;

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan baholash mezonlari (KPI) asosida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari fan metodistlari faoliyatining samaradorligini tahlil qiladi va ularning reytingini shakllantirib boradi;

fan metodistlarining asosiy ish faoliyati samaradorligining ko‘rsatkichlarini ishlab chiqadi va xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanishini ta’minlaydi;

metodistlar uchun natijadorlikka qarab ishlaydigan tizim yaratish, bunda, “**metodik xizmat xaritasi**”ni ishlab chiqish va yangi platformaga joylashtirish orqali metodistlarning ish samaradorligini oshirib borish choralarini ko‘radi;

o‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan metodikalarini ommalashtirish tartibini maxsus platforma orqali amalga oshiradi;

xalqaro ta’lim dasturlarining umumiy o‘rta ta’lim maktablariga joriy etilishini ta’minlaydi;

“**Ustozlar milliy forumi**” orqali o‘qituvchilarning o‘tgan o‘quv yili yakunlari va yangi o‘quv yili oldidan ta’lim dasturlaridagi o‘zgarishlar va yangiliklarni keng ommaga tushuntirish ishlarini olib boradi;

ta'lim sifati yuqori bo'lмаган мактабларга манзилли методик ўйдан берилади; бориш бо'yicha "**Методик-тур**" тартиби ишлаб чиқилади ва янги тизими юратилиди;

методик хизмат ко'рсатиш бо'лимлари томонидан Республика та'лим марказининг максус дастури, шунингдек, ишлаб чиқилган янги мактаб дарсларни ва о'кув о'лланмалари асосида умумий о'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari учун малақа ошириш курслари ташкіл этилади;

Республика та'лим марказида о'qituvchilarни янги методиклар, xalqaro tajribalar асосида дарс о'tishga o'rgatish бо'yicha умумий o'rta ta'lim мактаби direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosarlari va fan metodistlari учун максус onlayn kurslar tashkil qiladi;

методик хизмат ко'рсатиш ишлари сamaradorligini ошириш ва pedagog xodimlarga янги методикларни o'rgatib бориш мақсадида Республика та'лим марказининг **Ilmiy-metodik kengashida har chorakda bir marta** onlayn yoki oflaysiz tarzda respublika miqyosida **Metodik kengash yig'ilishlarini** o'tkazib boradi.

14. Fan o'qituvchilari mustaqil ravishda ijtimoiy tarmoq manbalari ("Khan Academy O'zbek -Onlayn ta'lim platformasi", online-maktab.uz, rtm.uz, ommalashtirish.uz va boshqalar)dan foydalanadi.


Fan o'qituvchilari томонидан mustaqil ravishda ijtimoiy tarmoq manbalaridan foydalanish darajasi va uning samaradorligi **har chorakda bir marta metodbirlashma** yig'ilishlarida muhokama qilib boriladi.

### **3-bob. Yakuniy qoidalar**

15. Umumiy o'rta ta'lim мактаблари o'qituvchilariga узлуksiz методик хизмат ko'rsatishda faol ishtiroy etgan, tashabbus ko'rsatgan va yuqori natijalarga erishgan тизим xodimlari Xalq ta'limi vazirligining tarmoq mukofotlari bilan taqdirlashga tavsiya etilishi mumkin.

16. Umumiy o'rta ta'lim мактаблари o'qituvchilariga узлуksiz методик хизмат ko'rsatish tartibi Xalq ta'limi vazirligining tegishli buyrug'i асосида ташкіл этилади ва тугатилади.

**Xalq ta'lifi tizimida uzlusiz metodik  
xizmat ko'rsatish tizimining yangi  
SXEMASI**



O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi vazirining  
2022-yil 5-dekabrdagi  
372-sonli buyrug‘iga  
2-ILOVA

## Umumiy o‘rta ta’lim maktabining Metodbirlashmalari to‘g‘risidagi NIZOM

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o‘rta ta’lim maktabi metodbirlashmasining maqsadi, asosiy vazifalari va ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Metodbirlashma -bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari (*keyingi o‘rinlarda umumta’lim maktablari*) da uzlusiz metodik xizmat tizimining bir bo‘g‘ini hisoblanib, o‘qituvchilarga metodik xizmatni amalga oshiradigan, ularning innovatsiya, tajriba-sinov ishlari va ta’lim-tarbiya jarayonlarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtiradigan jamoaviy organ hisoblanadi.
3. Metodbirlashma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining buyrug‘i va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek, umumta’lim maktabining ustavi va ushbu nizomga amal qiladi.
4. Mazkur nizom talablari barcha davlat umumta’lim maktablariga nisbatan tatbiq etiladi.

### 2-bob. Metodbirlashmaning maqsadi va asosiy vazifalari

5. Metodbirlashmaning maqsadi o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fan o‘qituvchilariga metodik yordamni tashkil etish, tegishli o‘quv fanlarni o‘qitish uslublarini takomillashtirish va o‘qitish sifatini oshirishga ko‘maklashadi.
6. Metodbirlashmaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
  - o‘qituvchilarga fanlarni o‘qitishga doir me’yoriy va metodik hujjatlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullarini ko‘rsatib beradi;
  - o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga (*PISA -15 yoshli o‘quvchilarining o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash, PIRLS -boshlangu ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushuntirish darajasini baholash, TIMSS – 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash*) tayyorlash uchun yuqori tashkilotlardan kelgan qo‘srimcha materiallar bilan fan o‘qituvchilarini ta’minlaydi;
  - o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitish metodlarini izlab topishga ko‘maklashadi;

“onlayn metodik yordam” bo‘yicha o‘tkaziladigan har xil seminar va uchrashuvchilarda tegishli fan o‘qituvchisining ishtirok etishini maktab rahbariyati bilan birgalikda ta’minlaydi;

ta’lim jarayonida yutuqlarga erishayotgan pedagog xodimlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ish tajribalarini ommalashtirish bo‘yicha tavsiya beradi;

o‘qituvchilar tomonidan tayyorlangan tarqatma va nazorat ishi materiallarini muhokamadan o‘tkazib ma’qullaydi;

o‘qituvchilarni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy ommabop adabiyotlar bilan tanishtirib boradi;

o‘quvchilarni oliy o‘quv yurtlariga tizimli tayyorlash bo‘yicha variativ o‘quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etish choralarini ko‘radi;

o‘qituvchilarga dars jarayonida ko‘rgazmali vositalar va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

o‘qituvchilarga sinfdan tashqari va to‘garak ishlarini tashkil etishga ko‘maklashadi;

yosh pedagoglarga tajribali ustozlarni biriktirib, kasbiy rivojlantirishga sharoit yaratadi;

o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv metodik qo‘llanmalar va didaktik materiallarni muhokamadan o‘tkazadi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, o‘qitish metodlarini o‘rganish maqsadida ochiq darslar tashkil qiladi;

har bir chorak yakuniga ko‘ra o‘quvchilardagi bo‘sqliqlarni to‘ldirish, murakkab mavzularni osonroq tushuntirish bo‘yicha metodik tadbirlarni tashkil etadi;

metodbirlashma a’zolari orasida sog‘lom raqobat va ijodiy muhitni shakllantiradi, boshqa metodbirlashmalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi;

fan o‘qituvchilarining dars taqsimotiadolat va shaffoflik asosida tegishli tarifikatsiya bo‘yicha metodbirlashmada muhokama qilinib, maktab pedagogik kengashiga taklif kiritadi;

fan o‘qituvchilarining metodik yordamga bo‘lgan ehtiyojini aniqlab, Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo‘limi metodistlaridan metodik yordam olish uchun hududiy xalq ta’limi boshqarmalari va Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo‘limi fan metodistiga murojaat qiladi hamda tegishli metodik yordam oladi;

fan o‘qituvchilarining samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha maktab rahbariyatiga tavsiya kiritadi;

ilg‘or metodikalarga ega o‘qituvchilarni xolis aniqlab, ularning tajribasini ommalashtirish, rag‘batlantirish bo‘yicha maktab pedagogik kengashiga taklif kiritadi;

o‘qituvchilarning fan yo‘nalishi bo‘yicha ro‘yxatlari tasdiqlangan xalqaro va milliy sertifikatlarni olishlari uchun ko‘maklashadi;  
mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida yig‘ilishlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, ochiq darslar, loyihalar bilan ishslash kabi tadbirlarni amalga oshiradi.

### **3-bob. Metodbirlashmalar faoliyatini tashkil etish**

7. Umumta’lim maktabida boshlang‘ich ta’lim hamda 5-11-sinflarda esa alohida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlar turkumi bo‘yicha Metodbirlashmalar faoliyat ko‘rsatadi.

8. Umumta’lim maktabida bitta fan yoki turkum bo‘yicha kamida uch nafar o‘qituvchi bo‘lsa, Metodbirlashma tashkil etiladi.

Agar tegishli fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan kam bo‘lsa, u holda ushbu fan o‘qituvchilari shu turkumdagи fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta Metodbirlashmaga birlashadi.

9. Metodbirlashma rahbari metodbirlashma a’zolari bilan kelishgan holda, mакtab direktorining buyrug‘i bilan, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha metodik ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘ygan, doimiy ravishda uzlusiz metodik xizmatni tashkil eta olgan, ijodkor va tajribali o‘qituvchilardan tayinlanadi.

10. Umumta’lim mакtabining har bir o‘qituvchisi (*o‘rindoshlik asosida ishlayotgan o‘qituvchilar ham*) o‘z yo‘nalishlari yoki tegishli fan turkumi bo‘yicha Metodbirlashmaga a’zo bo‘lishi shart.

11. Metodbirlashma tarkibi umumta’lim mакtabi direktorining buyrug‘i bilan shakllantiriladi.

12. Metodbirlashmaning faoliyati umumta’lim mакtabi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan nazorat qilinadi.

13. Metodbirlashma yillik ish reja asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Metodbirlashma ish rejasi metodbirlashma rahbari tomonidan ishlab chiqiladi va Metodbirlashma yig‘ilishida ko‘rib chiqiladi, umumta’lim mакtabi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

14. Metodbirlashma yig‘ilishlari **har chorakda kamida bir marta** o‘tkaziladi.

15. Metodbirlashma yig‘ilishlariga boshqa Metodbirlashmalarning mavzulari yoki qiziqishlariga ta’sir etuvchi masalalarni ko‘rib chiqilishida ularning rahbarlari (*o‘qituvchilar*) taklif etilishi lozim.

16. O‘quv yili oxirida Metodbirlashma faoliyatiga oid barcha hujjatlar direktorning o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tahlil qilinadi.

### **4-bob. Metodbirlashma rahbari va a’zolarining majburiyatları**

17. Metodbirlashma rahbarining majburiyatları:

Metodbirlashmaning ish rejasini tuzish va uning bajarilishini nazorat qilish, hisobotini tuzish;

yosh o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish;

metodbirlashma a’zolarining qaysi metodlarga muhtojligini aniqlab, hududiy

xalq ta'lifi boshqarmalari va Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo'limi fan metodistlaridan metodik yordam so'rabs olish;

tegishli fanlarni o'qitish sifatiga e'tibor berish, Metodbirlashma faoliyati yuzasidan pedagogik kengashga hisobot berish;

taqvim-mavzu rejalarining tuzilishi va bajarilishini nazorat qilish; ochiq darslarni tashkillashtirish.

18. Metodbirlashma har bir a'zosining majburiyatları:

har bir o'qituvchi kamida bitta Metodbirlashmaga a'zo bo'lishi;

Metodbirlashma o'tkazadigan yig'ilishlar va tadbirlarda qatnashish;

kasbiy mahoratini oshirishga intilishi;

pedagogning huquqiy-me'yoriy faoliyatini bilishi va unga amal qilishi;

pedagogik faoliyatida o'z-o'zini tahlil qilib borishi lozim.

### **5-bob. Metodbirlashmaning huquqlari**

19. Metodbirlashma quyidagi huquqlarga ega:

Umumta'lim maktabi rahbariyatiga fan xonalari mas'ullarini rag'batlantirish va fan to'garaklarini tashkil qilish yuzasidan takliflar kiritadi;

ayrim fan yoki yo'naliishlar bo'yicha chuqurlashtirilgan bilimlar beradigan sinflar ochish bo'yicha takliflar beradi;

ayrim fanlar chuqurlashtirib o'qitiladigan sinflar mavjud umumta'lim maktablarida yo'naliishlar bo'yicha maxsus dasturlar va yakuniy nazorat materiallarini tayyorlaydi;

Metodbirlashma a'zolarining malakasini oshirishga doir takliflar beradi.

### **6-bob. Metodbirlashma hujjatlari**

20. Metodbirlashma faoliyatiga doir quyidagi hujjatlar bo'lishi lozim:

Metodbirlashmaning tasdiqlangan yillik ish rejasi;

yig'ilish bayonnomasi;

yillik hisoboti.

21. Metodbirlashma hujjatlarining yuritilishi va saqlanishiga Metodbirlashma rahbari javobgar hisoblanadi.

Metodbirlashmaning yillik ish rejasi, yig'ilish bayonnomasi, hisoboti uch yil mobaynida saqlanadi hamda tegishli tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limining idoraviy arxiviga topshiriladi.

### **7-bob. Moddiy rag'batlantirish**

22. Umumi o'rta ta'lif maktablarida fan metodbirlashma rahbarlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-son qarori bilan tasdiqlangan "Umumi o'rta ta'lif muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirishning direktor jamg'armasini tashkil etish va uning mablag'laridan foydalanish tartibi to'g'risida nizom"ga muvofiq, talabnomalar asosida tarif stavkalariga har oylik ustama haqi berilib borilishi mumkin.

## **8-bob. Yakuniy qoidalar**

23. Metodbirlashmalar umumiyl o‘rta ta’lim maktabi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari tavsiyasiga ko‘ra maktab direktorining buyrug‘i bilan tashkil etiladi va tugatiladi.

24. Metodbirlashma qarorlarini bajarish Metodbirlashmaning har bir a’zosi uchun majburiy bo‘lib, qarorlar ijrosining umumiyl nazorati Metodbirlashma rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Xalq ta’limi vazirining  
2022-yil “5”-dekabrdagi  
372-sonli buyrug‘iga  
3-ILOVA

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi  
Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 21-iyundagi PQ-290-son qarorining 11-bandи asosida Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlari (*keyingi o‘rinlarda milliy markaz*) tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan **Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining** asosiy vazifalari va funksiyalarini, huquqlarini, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyati Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi (*keyingi o‘rinlarda — Respublika ta’lim markazi*) tomonidan muvofiqlashtiriladi.
3. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlarining rahbarlarini ishga qabul qilish Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.
4. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari xodimlarining malakasini doimiy oshirib borish, ularni ko‘rsatma materiallari bilan ta’minalash vazifasi Respublika ta’lim markazi zimmasiga yuklatiladi.
5. Milliy markazlar Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Bo‘limning moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi.
6. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Xalq ta’limi vazirligining buyruqlariga, mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.
7. Bo‘limning rasmiy nomi:
  - a) davlat tilida:  
to‘liq nomi –Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi;
  - b) rus tilida:  
to‘liq nomi – Отдел методической службы;
  - v) ingliz tilida:  
to‘liq nomi – Methodical service department.

## **2-bob. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining vazifalari va funksiyalari**

8. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining asosiy vazifalari va funksiyalari quyidagilardan iborat:

Respublika ta'lim markazining maxsus dasturi, shuningdek, ishlab chiqilgan yangi mактаб darsliklari va o'quv qo'llanmalari asosida umumiyl o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

umumiyl o'rta ta'lim mazmunini zamонавиy talablar, shuningdek, o'quv tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion shakllari va usullari, ilg'or pedagogik texnologiyalar, uzviy va uzuksizligini inobatga olgan holda takomillashtirib borish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

umumiyl o'rta ta'lim mazmunini belgilovchi baholash mezonlariga tayangan holda zamonga mos tarzda yangilanib turuvchi sifatli ta'lim mazmunini yaratishda milliy o'quv dasturini ishlab chiqish, rivojlantirish va takomillashtirishda ishtirot etish;

ilg'or milliy va xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda, mazmun va sifat jihatdan xalqaro talablarga mos ravishda ishlab chiqilgan umumiyl o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi, tayanch va variativ o'quv rejalarini hamda o'quv dasturlarini takomillashtirish, tajriba-sinovdan o'tkazish hamda amaliyatga joriy etish ishlarini amalga oshirish;

umumiyl o'rta ta'lim maktablarining milliy o'quv dasturiga muvofiq metodik faoliyatini muvofiqlashtirish va metodik yordam berib borish ishlarini tashkillashtirish;

darslik va o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish uchun umumta'lim maktablarining fan o'qituvchilaridan takliflar olish, Respublika ta'lim markaziga taqdim etish orqali darsliklarning yangi avlodini yaratish ishlariga yaqindan yordam berish;

yaratilgan darsliklar va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ekspertizadan o'tkazish, ularni ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha seminar-treninglar o'tkazish;

ilg'or o'qituvchilar ish tajribasini ommalashtirish ishlarini tashkil etishda Respublika ta'lim markazi bilan birga ishlash;

fanlarning o'qitish metodikasi va o'quvchilar bilimlarini baholashning xalqaro hamda milliy tajribalarni singdirgan holda zamонавиy uslublarini ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va bu boradagi ijobiy tajribani umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida ommalashtirish;

o'quv tarbiya jarayoniga "STEAM" fanlarini o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik texnologiyalarni tahlil etish va maqbul metodikalarni amaliyatga joriy etish yuzasidan Respublika ta'lim markaziga takliflar ishlab chiqib, taqdim etish;

o'z vakolatlari doirasida xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan xalq ta'limi tizimida metodik yordam ko'rsatishni rivojlantirish, istiqbolli va dolzarb muammolarning tahlili bo'yicha Respublika ta'lim markaziga takliflar kiritish;

ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning zamонавиy va innovatsion pedagogik uslublarini hamda raqamli ta'lim resurslarini rivojlantirishni keng joriy etish orqali

ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashish;

umumiylar o'rta ta'limning dolzARB masalalari va ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, tajriba-sinovlar olib borish, o'quv-tarbiya jarayonini uslubiy ta'minlash masalalarida hududiy xalq ta'limi boshqarmalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

ta'lim berishning innovatsion usullarini joriy etishga yo'naltirilgan o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlarning yangi avlodini yaratish bo'yicha fundamental, amaliy va ilmiy tadqiqotlar loyihalarini amalga oshirish;

o'quvchilarning individual qobiliyatları, iqtidorlarini aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning yuksak darajada ta'lim-tarbiya olishlari, ijodiy imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

o'qitishning interaktiv va zamonaviy usullarini, metodik materiallarni, pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish va oshirish bo'yicha metodik yordamning samarali shakllarini ishlab chiqish, tajriba-sinovdan o'tkazish, takomillashtirish shuningdek, o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga yo'naltirish;

zamonaviy ta'lim muhitini yaratish asosida o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar dizaynnini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha eksperimentlar o'tkazish, vazirlik va Respublika ta'lim markaziga xulosa va takliflar kiritish;

darsliklar, didaktik va ta'lim resurslarini tahlil qilish, ekspertizadan o'tkazish, bazasini yaratish, boyitib borish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda metodik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlarni, o'quv-metodik materiallarni tizimli tahlil qilish, Metodik xizmat bo'limlari huzurida O'quv-metodik kengashlari faoliyatini olib borish;

yosh avlodni tarbiyalash, ularning ongida Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirish, ularda yet g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishni ta'lim mazmuniga singdirish hamda o'quv-metodik mahsulotlar ishlab chiqish hamda joriy etish;

umumiylar o'rta ta'lim sifat mazmunini va metodik xizmatini yaxshilash maqsadida fanlar kesimida tayanch maktablar faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

umumta'lim muktab o'qituvchilarining darslarini onlayn va offlayn kuzatib borish va tahlil qilish;

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari bilan kelishilgan holda malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar uchun "Metodist soati"ni o'tishi mumkin;

ta'lim sifati yuqori bo'limgan umumiylar o'rta ta'lim maktablariga borib manzilli metodik yordam ko'rsatish;

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan materiallar tayyorlash hamda xalq ta'limi sohasini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro, mintaqaviy uchrashuvlar, anjumanlar va seminarlarda ishtiroy etish;

Respublika ta'lim markazi Milliy markazlar tuzilmasidagi Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyati va unga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring qilib boradi hamda Xalq ta'limi vazirligiga axborot berib boradi.

### **3-bob. Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining huquqlari va majburiyatları**

**O'z funksiyalarini amalga oshirishi uchun Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi quyidagi huquqlarga ega:**

vakolati doirasida xalq ta'lifi sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlardan Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi ishi uchun kerak bo'lgan material va ma'lumotlarni so'rash;

tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limlari va xalq ta'lifi muassasalariga metodik ko'rsatmalar yuborish;

xalq ta'lifi sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish, berilgan vakolatlar doirasida qo'yilgan alohida vazifalar va funksiyalarini bajarish maqsadida hududiy xalq ta'lifi boshqaruv organlari bilan kelishilgan holda umumta'lif muassasalari bilan hamkorlik qilish;

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyatiga tegishli masalalar yuzasidan takliflarni tegishli tartibda ko'rib chiqish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalari Hay'at yig'ilishi masalalariga kiritib borish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'lifi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'lifi boshqarmalari bilan kelishilgan holda, muassasalar rahbarlari va mutaxassislari bilan darslik mualliflari ishtirokida o'quv-seminarlar, uchrashuvlar, davra suhbatlari, tadbirlar tashkillashtirish va o'tkazish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xalq ta'lifi sohasini isloh qilish bo'yicha hujjatlari, Vazirlikning buyruq va normativ-huquqiy hujjatlari, Vazirlik Hay'ati qarorlari, hududiy xalq ta'lifi boshqaruv organlari rahbariyatining Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyatiga tegishli ko'rsatmalari ijrosini ta'minlash bo'yicha tizimli monitoringni amalga oshirish;

Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqiladigan davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darsliklar va o'quv-metodik mahsulotlarni ekspertizadan o'tkazish, xulosalar berish jarayonlariga ilg'or tajribali amaliyotchi o'qituvchi, metodistlarni jalg qilish;

yuqori mehnat ko'rsatkichlariga erishgan Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlarini davlat mukofotlari va idoraviy mukofotlar bilan taqdirlash uchun hududiy xalq ta'lifi boshqarmalariga taklif kiritish;

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va ilg'or metodikalarni o'rganish va tajriba almashish maqsadida amaliyot o'tash, o'qish, seminar va konferensiyalarda ishtirok etish uchun chet elga yuborish yuzasidan takliflar berish;

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi xodimlarining pedagogik amaliyot bilan shug'ullanish, ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun sharoitlar yaratib berish;

Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi faoliyatini keng yoritish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish, rasmiy

veb-saytlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda sahifalar ochish va yangilab borish;

Bo‘lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

**O‘z funksiyalarini amalga oshirishda Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi quyidagi majburiyatlarga ega:**

Ushbu Nizomda belgilangan vazifalar va funksiyalarni bajarish;

O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, Vazirlikning buyruq va farmoyishlari, Vazirlik Hay’ati qarorlari, Respublika ta’lim markazining buyruq va topshiriqlari, hududiy xalq ta’limi boshqaruv organlari, Milliy markaz rahbariyatining Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga tegishli ko‘rsatmalariga rioya qilish va bajarilishini ta’minlash;

Ushbu Nizomda ko‘zda tutilgan huquqlardan to‘g‘ri foydalanish.

**4-bob. Bo‘lim faoliyatini tashkil etish**

9. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi o‘z faoliyatida bevosita Milliy markazlar, Respublika ta’lim markazi hamda Xalq ta’limi vazirligiga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

10. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limiga Respublika ta’lim markazining tavsiyasi asosida Milliy markaz rahbari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan bo‘lim boshlig‘i boshchilik qiladi.

11. Quyidagilar Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘ining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilish;

Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga umumiylahabarlik qilish, uning o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy ishlarini samarali tashkil etish;

Metodik xizmat bo‘limining yillik ish-rejasini Milliy markazi bilan kelishilgan holda Respublika ta’lim markazi tomonidan tasdiqlatish;

Respublika ta’lim markazining Ilmiy metodik kengashi tomonidan har chorak yakunida o‘tkaziladigan Ilmiy metodik kengash yig‘ilishida bo‘lim boshlig‘i va zarur holda metodistlarning ishtirok etishi;

fan metodistlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlash uchun Milliy markazda komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga Milliy markaz rahbariyati, Metodik xizmat bo‘lim boshlig‘i, tajribali o‘qituvchilar, Respublika ta’lim markazi rahbariyati yoki xodimlaridan iborat bo‘lishi mumkin;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi xodimlarining vakolatlarini belgilash, ular o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash;

metodistlarning hisobotlarini eshitish;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi faoliyatiga taalluqli masalalar bo‘yicha tezkor majlislar o‘tkazish;

xodimlarni intizomiyl jazoga tortish va rag‘batlantirish masalalari yuzasidan rahbariyatga taklif kiritish;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarining mehnat faoliyati samaradorligini baholash (KPI) asosida tahlil qilish, uning natijasiga ko‘ra huquqiy

tartibda choralar ko‘rish;

jamoa ichida sog‘lom ma’naviy va ijodiy muhitni shakllantirish choralarini ko‘rish;

Sanitariya-gigienik, mehnatni muhofaza qilish qoidalari, texnik va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta’minalash;

metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

12. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi boshlig‘i bo‘lмаган davrda uning vakolatlarini Milliy markazi rahbariyati tomonidan belgilangan fan metodisti bajaradi.

13. Umumi o‘rtalim tizimi va Markaz faoliyatiga oid masalalarini ko‘rib chiqish uchun Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limida yo‘nalishlar bo‘yicha **O‘quv-metodik kengashlar** tashkil etiladi.

O‘quv-metodik kengashlar tarkibi va ish rejasi Respublika ta’lim markazi bilan kelishilgan holda Milliy markaz tomonidan tasdiqlanadi.

O‘quv-metodik kengashlarning ish tartibi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining yillik ish rejasiga muvofiq tashkil etiladi.

#### **5-bob. Bo‘limni moliyalashtirish va moddiy-texnik ta’minalash, xodimlarning mehnatiga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish**

14. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar Milliy markazlarga ajratiladigan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi.

15. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limlari metodistlarining bazaviy tarif stavkasi miqdori umumi o‘rtalim muassasalari oliy toifali o‘qituvchisining bazaviy tarif stavkasiga, bo‘lim boshliqlarini esa - umumi o‘rtalim muassasalari oliy toifali o‘qituvchisi bazaviy tarif stavkasi miqdorining 1,1 baravariga tenglashtiriladi.

#### **6-bob. Yakunlovchi qoida**

16. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish Milliy markazlaridagi  
Metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlarining  
malaka tavsiflari**

**1. Lavozim vazifalari**

Ta'lism sohasida olib borilayotgan islohotlarni bilishi, tahlil qila olishi va o'z munosabatini bildira olishi;

biriktirilgan fanlar bo'yicha Milliy o'quv dasturi, o'quv reja, o'quv dastur va darsliklarning mazmun mohiyatini bilishi va tahlil qilib bera olishi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha metodik ko'rsatma va tavsiyalar berish ko'nikmasiga ega bo'lishi;

o'z metodistik yo'nalishida (qamrab olingen fani bo'yicha) milliy o'quv dasturi talablarining bajarilishi yuzasidan o'tkaziladigan monitoring natijalari asosida o'quvchilarning bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish masalalari bo'yicha tavsiyalar va chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

o'z metodistik yo'nalishida (qamrab olingen fani bo'yicha)gi fanning o'qitilishi bo'yicha metodbirlashmalar ishlariga amaliy va metodik yordam berishni ta'minlash;

o'quvchilar bilim darajasi, oraliq, bosqichli nazorat ishlari va yakuniy attestatsiya natijalarini o'rganib tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar tayyorlash va uni ta'lism muassasalariga yetkazish;

o'qituvchilarni o'quv tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha metodik tavsiya va qo'llanmalar bilan ta'minlash;

metodik ishlarni muvofiqlashtirish, turli sinovlar natijalarini tahlil qilish, yangi o'quv metodik qo'llanma va darsliklar sinovi bo'yicha materiallar tayyorlash, yangi metodik adabiyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'qituvchilarga yetkazilishini tashkil etish, o'ziga biriktirilgan fani yuzasidan tajriba-tadqiqot ishlarni o'tkazish;

ta'lism-tarbiyani rivojlantirishga va sifatini oshirishga oid turli anjuman, ilmiy-amaliy konferensiyalar, o'quvlar ko'rik tanlovlari, "Ustozlar milliy forumi", ilmiy-amaliy yig'ilishlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

tayanch maktablar negizida biriktirilgan fanining o'qitilish sifatini oshirish, ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga oid seminar va konferensiyalar o'tkazish, yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqish;

o'z fani bo'yicha o'qituvchilar to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish; umumiy o'rta ta'lism maktablari o'qituvchilarining fan xonalarini jihozlash fizika, kimyo, biologiya va boshqa fanlar uchun yaratilgan o'quv laboratoriya

jihozlari, kompyuter sinflaridan samarali foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalar yaratib borish;

har xil o'tkaziladigan tanlovlarga nazorat topshiriqlarini hududiy xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda tayyorlash;

biriktirilgan fanining o'qitilishi bo'yicha ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda (teleko'rsatuv, radioeshittirish, gazeta va jurnallar) o'qituvchilarga metodik yordam sifatida keng yoritib borish;

o'qituvchilar o'rtasida o'zaro tajriba almashish ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida "onlayn metodik yordam" tashkil qilish;

variativ o'quv rejalar asosida tanlov sinflarini tashkil etishga metodik yordam ko'rsatish;

o'qituvchilarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish va har xil seminarlarda fan o'qituvchilarining ommalashtirilgan ishlarini yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilarga yetkazib berish;

Milliy o'quv dasturi, tayanch o'quv reja, taqvim mavzu rejalar, dasturlar va o'quv-metodik materiallarni tizimli tahlil qilishi, Metodik xizmat bo'limlari huzurida O'quv-metodik kengashlari faoliyatini olib borish;

umumta'lim mifik tabiiy o'qituvchilarining darslarini onlayn va offlayn kuzatib borish hamda tahlil qilish orqali metodik yordam berish;

o'quvchilarning bilimini baholashda xalqaro baholash dasturlarini amaliyotda qo'llashni o'rgatish;

ta'lim sifati yuqori bo'limgan umumiyligi o'rta ta'lim maktablariga borib manzilli metodik yordam ko'rsatish;

fanlarni integratsiya qilgan holda o'qitish usullarini o'rgatish;

har bir fan metodisti yo'nalishi bo'yicha fan o'qituvchilarining xalqaro va milliy sertifikat olishlari uchun tegishli metodik yordamlar ko'rsatib borish;

mediasavodxonlikka ega bo'lishi va buni o'qituvchilarga o'rgata olishi, AKTdan to'g'ri foydalana olishi;

kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya gigiyena talablarini, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qila olishi zarur.

## 2. Bilishi lozim

davlatimizning xalq ta'limiga oid va bolalar huquqlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni;

mutaxassisligi bo'yicha yangiliklarni, psixologiya-pedagogika fani yutuqlarini va hayotga tatbiq etish yo'llarini;

metodik ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish usullarini;

o'quvchilarning o'quv fani bo'yicha milliy o'quv dasturi va talablarini o'zlashtirish monitoringini olib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini;

milliy o'quv dasturi, o'quv reja, xalqaro tan olingan ta'lim dasturlari va boshqa o'quv-metodik hujjatlarning mazmuni hamda o'quv jarayoniga tatbiq etish yo'llarini;

o‘z metodistlik yo‘nalishidagi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar bo‘yicha to‘liq tushunchaga ega bo‘lishi;

kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalarini.

### **3. Malaka talablari**

qamrab olingan faniga to‘g‘ri keluvchi kamida bakalavr darajasidagi oliv pedagogik ma’lumot;

xorijiy tillardan birining boshlang‘ich bosqichini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

besh yildan kam bo‘lmagan pedagogik yoki xalq ta’limi boshqaruv organlaridagi ish staji;

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo‘limining O‘quv metodik kengashi to‘g‘risidagi NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo‘limining O‘quv metodik kengashi to‘g‘risidagi (keyingi o‘rinlarda O‘quv-metodika kengashi deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Metodik kengash o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Xalq ta’limi vazirining buyruqlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ushbu Nizomga amal qildi.

3. Mazkur Nizom talablari Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat bo‘limiga nisbatan tatbiq etiladi.

**2-bob. O‘quv-metodika kengashining maqsadi va asosiy vazifalari**

4. O‘quv-metodik kengashining maqsadi fan o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga ko‘maklashish, umumta’lim maktablarida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari, ilg‘or ish tajribalar va metodik ishlarni ommalashtirish, ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ta’lim muassasalarida amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

5. O‘quv-metodik kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tuman (shahar)lar bo‘yicha o‘qituvchilarga metodik xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish va takomillashtirish, tashqi monitoring natijasida aniqlangan o‘quvchilardagi bo‘shliqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

umumta’lim maktablariga o‘quv dasturlari, darsliklar, metodik qo‘llanmalarning o‘quv jarayoniga tatbiq etilishida amaliy yordam ko‘rsatadi;

ilg‘or pedagogik tajribaga ega bo‘lgan ijodkor o‘qituvchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga tavsiya etadi;

fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi;

ta’lim muassasalari uchun yaratilgan metodik tavsiyalar va kichik hajmdagi uslubiy qo‘llanmalarni muhokama qiladi va ularni chop etishga tavsiya etish yoki qayta ishslash, takomillashtirish yuzasidan qarorlar qabul qiladi;

umumta'lim fanlari o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi;

ommaviy axborot vositalari orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan maqolalar, ochiq dars ishlanmalari, o'tkazilgan onlayn o'quv-seminarlari bo'yicha tayyorlangan tavsiyalar yoritib boriladi;

ilmiy-uslubiy ishlar samaradorligini oshirish hamda o'qituvchilarning yaratayotgan yangiligi bo'yicha tavsiyalar va amaliy yordamlar berib boradi.

### **3-bob. O'quv-metodik kengashining faoliyatini tashkil etish**

6. Milliy markazlardagi Metodik xizmat bo'limida O'quv-metodik kengash tashkil etiladi:

boshlang'ich ta'lim yo'nalishi;

filologiya fanlari (ona tili va adabiyot, o'zbek tili) yo'nalishi;

rus va xorijiy tillar fanlari yo'nalishi;

ijtimoiy fanlar (tarix, davlat va huquq asoslari, tarbiya) yo'nalishi;

aniq fanlar (matematika, informatika va axborot texnologiyalari) yo'nalishi;

tabiiy va iqtisodiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya, geografiya va iqtisodiyot, tabiiy fanlar) yo'nalishi;

amaliy fanlar (musiqa madaniyati, tasviriy san'at, texnologiya) yo'nalishi;

jismoniy tarbiya (jismoniy tarbiya, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik) yo'nalishi.

7. O'quv-metodik kengash tarkibi, Metodik xizmat bo'limlarining metodistlari, ijodkor, tajribali o'qituvchilar va mutaxassislardan iborat bo'ladi.

Shuningdek, O'quv-metodika kengashi tarkibiga jamoatchi salohiyatlari olimlar, amaliyotchi pedagog va metodistlar shuningdek, turli sohalarning yetakchi mutaxassislari, jamoat tashkilotlar vakillari kirishi mumkin. O'quv-metodik kengash a'zolari yo'nalishlar bo'yicha 7-9 nafardan iborat bo'ladi.

Kengash tarkibining kamida ellik foizi shu sohada doimiy ishlovchi xodimlardan iborat bo'lishi zarur.

8. O'zining metodik ishlari bilan shu sohada tanilgan mutaxassis O'quv-metodika kengashi raisi etib belgilanadi.

O'quv-metodik kengash raisi jamoatchilik asosida kengashga rahbarlik qiladi va yig'ilishlarda ko'rildigan masalalarni tayyorlashga boshchilik qiladi.

9. O'quv-metodik kengash tarkibi Milliy markaz buyruqlari bilan tasdiqlanadi.

10. Kengash a'zolari milliy o'quv dasturlarining bajarilishi borasida olib borilayotgan ishlarni o'rganadi va tavsiyalar tayyorlaydi. Ta'lim muassasalariga o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdim etadi.

11. O'quv-metodik kengash kotibi kengash a'zolari ichidan to'g'ridan-to'g'ri ochiq ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Kengash kotibi yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan materiallarni tayyorlaydi, hujjatlarni rasmiylashtiradi.

O‘quv-metodik kengashlar qarorlari kengash yig‘ilishi bayonnomalari orqali rasmiylashtiriladi va amalga oshiriladi.

12. O‘quv-metodik kengash yig‘ilishlari har chorakda bir marta o‘tkaziladi va yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirib boriladi. Zarur hollarda, navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin.

13. O‘quv-metodik kengashlarning yillik ish rejasi tuziladi va kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

#### **4-bob. O‘quv-metodik kengashlarda muhokamalarni o‘tkazish tartibi**

14. Muhokamaga berilayotgan metodik materiallar (tavsiya, metodik qo‘llanmalar va hokazo) ikki nusxada tayyorlanib, metodist, amaliyotchining bergan 3 ta taqrizi, ta’lim muassasasining yig‘ilish qarori bilan O‘quv-metodik kengashlarining kotibiga topshiriladi.

Kotiba qo‘lyozmani ro‘yxatga oladi va muhokamaga qo‘yish uchun tayyorlaydi.

O‘quv-metodik kengash raisi va kotibi kengash qarorlari bajarilishining muntazam ravishda monitoringini olib boradi va qabul qilingan qarorlar ijrosi to‘g‘risida kengash a’zolariga hisobot beradi.

O‘quv-metodik kengashlar a’zolari kengash majlisida ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan qabul qilingan qarorlar to‘g‘ri va aniq bajarilishi uchun javob beradi.

15. Qo‘lyozma ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyin 1 oy muddat ichida kamida uch nafar soha mutaxassislaridan (*shulardan bir nafari kengash a’zosi bo‘lishi shart*) taqriz olinadi.

Muallif yoki mualliflar guruhi a’zolari muhokamadan kamida bir hafta oldin taqrizlar bilan tanishtiriladi, taqrizda bildirilgan takliflarni inobatga olish, mavjud kamchiliklar va nuqsonlarni bartaraf etish uchun mualliflarga imkoniyat beriladi.

16. Kengash kotibi tomonidan kengash a’zolari va mualliflar ikki hafta oldin yig‘ilishning sanasi va vaqtি haqida xabardor qilinadi.

17. O‘quv metodik kengash bayonnomalari, ish rejasi, hisoboti 5 yil mobaynida saqlanadi hamda hududiy xalq ta’limi boshqarmalarining idoraviy arxiviga topshiriladi.